

BAYONI

Samarqand shahri  
Raislik qiluvchi

S.Mamatkulov

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Sultanmuradov Elyor  
Erkinovich

Komissiya raisi o'rinbosari Bosh muhandis

Maxmudov Sherzod  
Ulug'bekovich

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Bekmirzayev Azim  
Xasanovich

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Abduraimov Sobir Mamarajabovich  
Narmatov Xurshid Umrabayevich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'lim boshlig'i,  
Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK direktori S.Mamatkulov so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quyidagi

1. Bulung'ur tuman Cho'yantepa MFY Mo'g'ol qishlog'i Zar-zamin ko'chasini
2. Jomboy tumani Sherqo'rg'on MFY Guzay, urtabozor va Og'ajon qishlog'i ichki yo'lini
3. Jomboy tumani Zarafshon MFY o'rtabo'z 1 va o'rtabo'z 2 ko'chasini
4. Kattaqo'rg'on tumani Chorog'on MFY ichki yo'lini
5. Kattaqo'rg'on shahar Qo'shhovuz MFY ichki yo'lini
6. Kattaqo'rg'on shahar Yermachit MFY ichki yo'lini
7. Kattaqo'rg'on tumani A.Navoiy MFY ichki yo'lini
8. Kattaqo'rg'on tumani M.Ulug'bek MFY ichki yo'lini
9. Nurobod tumani Saroy MFY ichki yo'lini
10. Pastdarg'om tuman “Zarmon” MFY № 85 maktabga borish yo'lini
11. Paxtachi tumani Burkut MFY 2- maktab yon ko'chasini
12. Payariq tumani Toxirshayh MFY Moylitepa qishlog'i asosiy ko'chasi va Nayman qishlog'ini Beglar guzari bilan bog'lovchi yo'lini
13. Qo'shrabot tumani Chimmos MFY ichki yo'lini
14. Qo'shrabot tumani Chinoq MFY ichki yo'lini
15. Qo'shrabot tumani Kuvkalla MFY ichki yo'lini
16. Samarqand tumani Kulba MFY ichki yo'lini
17. Samarqand tumani Rustam MFY Baraka ko'chasini
18. Samarqand tumani Quyi Chordara MFY (Chordara va Ittifoq ko'chalarini
19. Urgut tumani Muminobod MFY ichki yo'lini
18. Urgut tumani Qoratepa MFY Mingbuloq qishlog'i ichki yo'lini
29. Samarqand shahar Siyob hududi Andijoniy MFY 2-yo'lini
22. Payariq tumani Navbahor MFY Devarak qishlog'i ichki yo'llarini
23. Samarqand tumani Rustam MFY Baraka ko'chaslarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish to'g'risida

(Sultanmuradov E, Sh.Maxmudov, S.Abduraimov, A. Bekmirzayev.)

“Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK tomonidan 2022 yil 24 Iyun O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 5 Iyuldagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakillangan bayonnomalarga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan “YO'L LOYIHA TARAQQIYOT” MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib

YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyektlar bo'yicha komissiya bayonnoma davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnoma bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i. X.Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 5 Iyundagi elektron bayonnomalarga asosan “YO'L LOYIHA TARAQQIYOT” MChJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i A.Bekmirzayev, tanlov g'olibi “YO'L LOYIHA TARAQQIYOT” MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini SHNQ va QMQga mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

Komissiya a'zolari

| F.I.SH                          | Imzo | Lavozimi  |
|---------------------------------|------|---|
| Sultanmuradov Elyor Erkinovich  |      | Korxonada bosh muhandisi                                    |
| Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich  |      | Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i                        |
| Bekmirzayev Azim Xasanovich     |      | Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i                          |
| Abduraimov Sobir Mamarajabovich |      | Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i                   |
| Narmatov Xurshid Umrabayevich   |      | Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i |

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI**  
**(LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI TAYYORLASH BO'YICHA)**

569/22-LS-261 – sonli

“ 8 ” iyul 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor v.b S.Mamatkulov bir tomondan va “YO'L LOYIHA TARAQQIYOT” MCHJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi D.Ahmedov ikkinchi tomondan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 5.07.2022 yildagi 113265-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: **Bulung'ur tuman Cho'yantepa MFY Mo'g'ol qishlog'i Zar-zamin ko'chasini joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish** belgilangan norma va qi-dolariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

**2. SHARTNOMA BAHOSI**

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 5 000 571 (besh million besh yuz yetmish bir) so'mni tashkil qiladi.

**3. TO'LOV TARTIBI**

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

**4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunidek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblari asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning roziligi shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

**5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan SHNQ va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlar va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligi loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

**6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi hamda elektron variantlari bilan «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agar shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlar bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

## 7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni moylash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu badda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

## 10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida uch nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

## TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

### “BUYURTMACHI”

Nomi: “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati”

DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB “Ipoteka bank”

L/s: 304521860184067045990118048

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED: 70220

Direktor:  S. Mamatkulov

Mazkur shartnoma 2022 yil 19-avgust kuni «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma mamlakatdagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan tadbir qilinmaydi.

Yurist: 

### “BAJARUVCHI”

Nomi: “YO'L LOYIHA TARAQQIYOT” MCHJ

Manzili: Toshkent sh. Olmazor t Beruniy 2-uy 15-xona

Bank nomi: “Ipoteka-bank” Olmazor filiali

X/R: 2020 8000 8051 2411 5001

MFO: 00901

STIR: 306 714 958

OKNX: 96120

Direktor:  D. Ahmedov

Yurist: 

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 23402003000100001010  
Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi  
Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1  
STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160  
Tel 2335853, 231-11-52